

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

***61010300 – Sport faoliyati (faoliyat turlari bo'yicha)* bakalavriat ta'lim  
yo'nalishining malaka talablari**

**Buxoro – 2022**

**ISHLAB CHIQLIGAN VA KIRITILGAN:**

- Buxoro davlat universiteti;

**TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus vazirligi Buxoro davlat universiteti ilmiy kengashning 202\_\_ yil "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_ - sonli yig'ilishida ma'qullangan.

**JORIY ETILGAN:**

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus vazirligi Buxoro davlat universiteti.

Mazkur Malaka talablari "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar. "Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy malaka ramkasiga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talabini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirliligi Buxoro davlat universitetiga tegishlidir.

## MUNDARIJA

T/r			bet
1.	<i>61010300 — Sport faoliyati (faoliyat turlari bo'yicha)</i>	bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tasnifi.....	4
1.1.	Qo'llanish sohasi.....		4
1.1.1	<i>61010300 — Sport faoliyati (faoliyat turlari bo'yicha)</i>	malaka talabining qo'llanishi.....	4
1.1.2	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....		4
1.2.	<i>61010300 — Sport faoliyati (faoliyat turlari bo'yicha)</i>	ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tasnifi.....	4
1.2.1	<i>61010300 — Sport faoliyati (faoliyat turlari bo'yicha)</i>	ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2	<i>61010300 — Sport faoliyati (faoliyat turlari bo'yicha)</i>	ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining ob'ektlari.....	5
1.2.3	<i>61010300 — Sport faoliyati (faoliyat turlari bo'yicha)</i>	ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari.....	5
1.2.4	<i>61010300 — Sport faoliyati (faoliyat turlari bo'yicha)</i>	ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.....	5
2.	<i>61010300 — Sport faoliyati (faoliyat turlari bo'yicha)</i>	ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.....	8
2.1.	Umumiy kompetensiyalar.....		8
2.2.	Kasbiy kompetensiyalar.....		8
	Bibliografik ma'lumotlar.....		10
	Kelishu varag'i.....		11

## **1. 61010300 - *Sport faoliyati (faoliyat turlari bo'yicha)* bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tasnifi**

*61010300 - Sport faoliyati (faoliyat turlari bo'yicha)* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash *kunduzgi, kechki, sirtqi* ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Ta'lim shakli bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Bakalavriat ta'limi dasturining me'yoriy muddati kunduzgi 4-yil, kechki 4,5 – yil, sirtqi 5-yil

### **Qo'llanish sohasi**

#### **1.1.1. *61010300 - Sport faoliyati (faoliyat turlari bo'yicha)* ta'lim yo'nalishi malaka talabining qo'llanilishi.**

Malaka talabi *61010300 - Sport faoliyati (faoliyat turlari bo'yicha)* ta'lim yo'nalishi bo'yicha oliy ma'lumotli bakalavrlar tayyorlash o'quv reja va fan dasturlarining o'zlashtirilishini amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi hududidagi barcha oliy ta'lim muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

#### **1.1.2. Malaka talablarning asosiy foydalanuvchilari:**

– mazkur ta'lim yo'nalish bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va o'quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun ma'sul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

– ta'lim yo'nalishining o'quv rejasi va o'quv dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim tashkilotining talabalar;

– bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

- ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

- oliy ta'lim muassasasini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

– oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

– kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

– oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

#### **1.2. *61010300 - Sport faoliyati (faoliyat turlari bo'yicha)* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tasnifi**

##### **1.2.1. *61010300 - Sport faoliyati (faoliyat turlari bo'yicha)* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari:**

*61010300 - Sport faoliyati (faoliyat turlari bo'yicha)* - "Xizmat ko'rsatish sohasi"ga oid yo'nalish bo'lib, jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarida mehnat faoliyatini tashkil etish, sport turlari bo'yicha o'quv mashg'ulotlarni tashkil etish va o'tkazish, maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida jismoniy tarbiya darslarini tashkil etish va o'tkazish, sport turlariga oid harakatlarga o'rgatish, jismoniy tarbiya va sport sohasiga oid vositalar, tamoyillarni qo'llash, harakatlarga o'rgatish, yosh davrlariga nisbatan vosita va uslublarni tanlash, jismoniy yuklamani miqdor va sifat jihatidan boshqarish va individuallashtirish, jismoniy mashg'ulotlarni rejalashtirish, nazorat va tahlil qilib borish, sport faoliyatining asosiy tomonlarini boshqarish, sport sohasidagi ilmiy-

tadqiqot ishlarini olib borish bilan bog'liq kompleks masalalar majmuasini qamrab oladi.

*Yo'nalish bo'yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilar talablaridan kelib chiqqan holda bakalavrlariyatning kasbiy faoliyat sohalarida qo'shimcha va o'zgarishlar bo'lishi mumkin.*

**1.2.2. 61010300 - Sport faoliyati (faoliyat turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining ob'ektlari:**

– maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari hamda ulardagi o'quv jarayonlari;

– sport maktablari, sport turlariga ixtisoslashgan sport maktablari, sport turlari bo'yicha ixtisoslashgan bolalar va o'smirlar sport maktablari, bolalar va o'smirlar sport maktablaridagi sport mashg'ulotlari jarayoni;

– sport turlari bo'yicha mashg'ulotlarini tashkil etish vosita va usullari;

– sport jamoalari, sport klublari, sport federatsiyalari, ishlab chiqarish korxonalarini;

- sport musobaqalari.

*Yo'nalish bo'yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda bakalavrlarning kasbiy faoliyat ob'ektlarida qo'shimcha va o'zgarishlar bo'lishi mumkin.*

**1.2.3. 61010300 - Sport faoliyati (faoliyat turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy faoliyati quyidagilarni qamrab oladi:**

- sport va jismoniy tarbiya;

- pedagogik (umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimida), ilmiy tadqiqot;

- foydalanish va xizmat ko'rsatish;

- sog'lomlashtirish va tiklash;

- tashkiliy-boshqaruv.

*Yo'nalish bo'yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda bakalavrlarning kasbiy faoliyat turlariga qo'shimcha va o'zgarishlar bo'lishi mumkin.*

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha tayyorlangan bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining muayyan turlari ta'lim jarayonining manfaatdor ishtirokchilari bilan hamkorlikda oliy ta'lim muassasasi tomonidan aniqlanadi.

**1.2.4. 61010300 - Sport faoliyati (faoliyat turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari**

– maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida jismoniy tarbiya darslari va sport mashg'ulotlarini tashkil etish va olib borish;

– sport maktablari, sport turlariga ixtisoslashgan sport maktablari, sport turlari bo'yicha ixtisoslashgan bolalar va o'smirlar sport maktablari, bolalar va o'smirlar sport maktablaridagi sport mashg'ulotlarini tashkil etish va olib borish;

– sport jamoalari, sport klublarida sport mashg'ulotlarini olib borish va sport musobaqalarini tashkil etish;

- ishlab chiqarish korxonalarida jismoniy tarbiya va sport tadbirlarini tashkil etish;
- ta'lim yo'nalishi bo'yicha oliy ma'lumotli shaxslar egallashi lozim bo'lgan lavozimlarda mustaqil ishlashga;
- tegishli bakalavriat yo'nalishi doirasida tanlangan mutaxassislik bo'yicha magistraturada oliy ta'limni davom ettirishga;
- kadrlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimida qo'shimcha kasb ta'limi olish uchun tayyorlanadilar.

**Sport va jismoniy tarbiya faoliyati da:**

- jismoniy tarbiya va sport sohasidagi kasbiy bilimlarni qo'llash;
- sport mashg'uloti nazariyasining paydo bo'lish va shakllanish evolyusiyasini, tanlangan sport turining tibbiy-biologik va psixologik asoslarini hamda mashg'ulot texnologiyasini, jismoniy tarbiya va sport sohasidagi faoliyatning sanitariya-gigienik asoslarini tushunish;
- bolalar va yoshlarda tanlangan sport turi bilan shug'ullanish motivatsiyasini shakllantira olish, shug'ullanuvchilarda halol sport raqobatining ahloqiy tamoyillarini tarbiyalay olish;
- umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litseylar, texnikumlarda «Jismoniy tarbiya va sport»ga oid fanlaridan o'rnatilgan tartibda dars berish;
- tanlangan sport turida individning antropometrik, jismoniy va psixologik xususiyatlarini aniqlash bo'yicha zamonaviy metodikalarni qo'llagan holda sport orientatsiyasi va saralashi tizimini amalga oshira olish;
- bolalar va o'smirlar sporti sohasida va ommaviy razryadlar sportchilar bilan ishlash bo'yicha aniq mashg'ulotlarning uzoq muddatga mo'ljallangan va tezkor reja hamda dasturlarni ishlab chiqa olish;
- tanlangan sport turi bo'yicha bolalar va o'smirlar sportida va ommaviy razryadlar sportchilari bilan mustaqil ravishda trenirovka mashg'ulotlarini olib borish;
- mashg'ulotlarni olib borishda havfsizlik texnikasini ta'minlay olish;
- tanlangan sport turi uchun dolzarb hisoblangan pedagogik nazorat va korreksiya texnologiyalari, inson jismoniy holatini boshqarish vositalari va usullarini qo'llay olish;
- rejaviy va hisobot hujjatlarini tuzish, ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarini hamda sport musobaqalarini tashkil qila olish *qobiliyatlariga ega bo'lishi lozim.*
- umumiy o'rta, o'rta maxsus kasb-hunar ta'lim tizimining ta'lim muassasalarida tayyorgarlik yo'nalishida nazarda tutilgan o'quv fanlari bo'yicha zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib nazariy hamda amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish;
- o'quv jarayonini tashkil etish va o'tkazilishiga ko'maklashish, tadqiqotlarda ishtirok etish, ma'lumotlarni to'plash, umumlashtirish va tahlil etish;
- ta'lim-tarbiya jarayoni tarkibiy qismlari (maqsad, natija, mazmun, shakl, metod va vosita)ning o'zaro aloqadorligi va umumiyligini hisobga olish;

– ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning asosiy va yordamchi shakllaridan unumli foydalanish;

– o‘quvchilarning bo‘sh vaqtini samarali tashkil etish va o‘tkazish;

– ta’lim-tarbiyaning xilma-xil metodlarini, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni oqilona tanlay olish, ijodiy yondashuv asosida metod va texnologiyalarning milliy mentalitetga mosligini ta’minlash;

– o‘qitilayotgan fanlar bo‘yicha dars mashg‘ulotlarini o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan o‘quv-metodik hujjatlarni shakllantirish, tuzish va ularni tatbiq etish;

– mustaqil ta’lim va ijodiy qidiruv natijasida o‘qitilayotgan fan hamda pedagogik faoliyat sohasidagi metodlar, vositalar va shakllar jabhalarida o‘z-o‘zini muntazam takomillashtirib borish qobiliyatlariga ega bo‘lishi lozim.

**Mazkur ta’lim yo‘nalishi bitiruvchilariga quyidagi kvalifikatsiyalar beriladi:**

– tanlangan sport turi bo‘yicha trener;

– jismoniy tarbiya o‘qituvchisi;

– jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha yo‘riqchi-uslubchi.

**Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:**

– jismoniy tarbiya va sport sohasidagi dolzarb muammolarni aniqlash.

– jismoniy tarbiya va sportga oid ilmiy tekshirishlar bo‘yicha namunaviy usullarda ilmiy-amaliy tadqiqotlar o‘tkazish;

– respublika va xorijda chop etilgan jismoniy tarbiya va sportga oid ilmiy-texnik axborotlarning ilmiy manbalarini o‘rganish;

– ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishda bevosita ishtirok etish;

– aprotatsiyadan o‘tgan usullarni qo‘llagan holda jismoniy tarbiya va sport sohasidagi faoliyatning turli jihatlarining samaradorligini aniqlash bo‘yicha ilmiy tadqiqot o‘tkazish;

– matematik-statistika usullari, axborot texnologiyalari yordamida tadqiqot natijalarini qayta ishlash usullaridan foydalana olish, umumlashtirish va xulosalarni shakllantira olish.

– mavzu (topshiriq) bo‘yicha ilmiy-texnikaviy ma’lumotlarni yig‘ish, ishlov berish, tahlil qilish va olingan malumotlarni tizimlashtirishda ishtirok etish;

– ilmiy-tadqiqot natijalarini va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etishda qatnashish;

– internet tarmog‘ida sohaga tegishli eng yangi ilmiy, texnologik yutuqlar haqidagi ma’lumotlarni maqsadga yo‘naltirilgan holda qidirish va topish;

– ilmiy-tadqiqot va ishlab chiqarish jamoasi tarkibida (tayyorlanganlik profiliga mos ravishda) kasbiy faoliyat masalalarini yechish **gobilyatlariga ega bo‘lishi kerak.**

**Foydalanish va servis xizmatini ko‘rsatish faoliyatida:**

– sport inshootlari va jihozlardan foydalanishni, ta’minlash va texnikaviy xizmat ko‘rsatishni;

– kasbiy etika kodeksiga rioya qilish **gobilyatlariga ega bo‘lishi kerak.**

### **Sogʻlomlashtirish va tiklash faoliyatida:**

Davolash muassasalarida, dam olish uylarida, sanatoriyalarda sogʻlomlashtiruvchi jismoniy mashgʻulotlarni olib borish;

– sport bilan shugʻullanuvchilarning jismoniy va funksional holatini qayta tiklovchi zatnonaviy vosita va usullarni qoʻllash qobiliyatiga ega boʻlishi kerak.

### **Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:**

– rejaviy va hisobot hujjatlarini tuzish, ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarini hamda sport musobaqalarini tashkil qila olish;

- jismoniy tarbiya va sport sohasidagi davlat va jamoat boshqaruv organlari hujjatlarini amaliy qoʻllay olish;

– quyi tarkibiy boʻlimlarda tezkor ish rejalarini tuzish va ularning bajarilishini taʼminlay olish;

– bilimlari va mahoratlaridan sifatni taʼminlash va boshqarishda foydalanish;

– ish sifati uchun masʼuliyatni his qilish, oʻz bilimlari va mahoratidan sifatni boshqarish boʻyicha foydalana olish;

– innovatsion gʻoyalardan foydalanishga tayyor boʻlish;

– boshqaruv qarorlarini qabul qilish;

- jismoniy tarbiya va sport, sport-sogʻlomlashtirish muassasalari ishini tashkil qilish va uni boshqarish;

– xizmatlat koʻrstirish jarayonlarining atrof-muhit muhofazasi, yongʻin, texnika va mehnat xavfsizligi talablariga mosligini monitoring qilish;

– bajarayotgan faoliyati boʻyicha ish rejasini tuzish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishning natijalarini baholash qobiliyatlariga ega boʻlishi lozim.

## **2. 61010300 — Sport faoliyati (faoliyat turlari boʻyicha) taʼlim yoʻnalishi boʻyicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qoʻyiladigan talablar**

### **2.1. Umumiy kompetensiyalar**

– dunyoqarash bilan bogʻliq tizimli bilimlarga ega boʻlishi;

– gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar asoslarini, joriy davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olishi;

– tabiat va jamiyatda kechayotgan jarayon va hodisalar haqida yaxlit tasavvurga ega boʻlishi, tabiat va jamiyat rivojlanishi haqidagi bilimlari egallashi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asoslarda hayotda va oʻz kasb faoliyatida foydalana bilishi;

– insonning boshqa insonga, jamiyatga va atrof muhitga munosabatini belgilovchi huquqiy hamda maʼnaviy mezonlarni bilishi, kasb faoliyatida ularni hisobga olib bilishi.

### **2.2 . Kasbiy kompetensiyalar:**

– jismoniy tarbiya va sport sohasidagi kasbiy bilimlarni qoʻllash;

– axborot yigʻish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan boʻlishi, oʻz kasb faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishi;

- tegishli bakalavriat yo‘nalishi bo‘yicha raqobotbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo‘lishi;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o‘z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;
- sog‘lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to‘g‘risida ilmiy tassavvur hamda e‘tiqodga, o‘zini jismoniy chiniqtirish uquv va ko‘nikmalariga ega bo‘lishi lozim;
- sport moshg‘uloti nazariyasining paydo bo‘lish va shakillanish evolyusiyasini, tanlangan sport turining tibbiy-biologik va psixologik asoslarini hamda mashg‘ulot texnologiyasini, jismoniy tarbiya va sport sohasidagi faoliyatning sanitariya-gigienik asoslarini tushunish;
- bolalar va yoshlarda tanlangan sport turi bilan shug‘ullanish motivatsiyasini shakllantira olish, shug‘ullanuvchilarda halol sport raqobatining ahloqiy tamoyillarini tarbiyalay olish;
- tanlangan sport turida individning antropometrik, jismoniy va psixologik hususiyatlarini aniqlash bo‘yicha zamonaviy metodikalarni qo‘llagan holda sport orientatsiyasi va saralashi tizimini amalga oshira olish;
- bolalar va o‘smirlar sporti sohasida va ommaviy razryadlar sportchilar bilan ishlash bo‘yicha aniq mashg‘ulotlarning uzoq muddatga mo‘ljallangan va tezkor reja hamda dasturlarni ishlab chiqarish;
- tanlangan sport turi uchun dolzarb hisoblangan pedagogik nazorat va korreksiya texnologiyalari, inson jismoniy holatini boshqarish vositalari va usullarini qo‘llay olish;
- rejaviy va hisobot hujjatlarini tuzish, ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarini hamda sport musobaqalarini tashkil qila olish qobiliyati;
- jismoniy tarbiya va sport sohasidagi davlat va jamoat boshqaruv organlari hujjatlarini amaliy qo‘llay olish;
- quyi tarkibiy bo‘limlarda tezkor ish rejalarini tuzish va ularning bajarilishini ta‘minlay olish;
- innovatsion g‘oyalardan foydalanishga tayyor bo‘lish.

**UDK 002: 651. 1/7**

**Guruh T 55**

**OKS 01.040.01**

**Tayanch so'zlar:**

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat ob'ekti, kasbiy faoliyat jabhasi, bakalavriatning asosiy o'quv reja va o'quv dasturi (bakalavriat dasturi), profil, o'qish o'rganish natijalari, o'quv sikli, jismoniy tarbiya va sport sohasidagi kasbiy bilimlar, tanlangan sport turining tibbiy-biologik va psixologik asoslari, sport moshg'uloti nazariyasi, sanitariya-gigienik asoslar, sport turi bilan shug'ullanish motivatsiyasi, individning antropometrik, jismoniy va psixologik xususiyatlari, ommaviy razryadli sportchilar bilan ishlash, bolalar va o'smirlar sporti, sport orientatsiyasi va saralashi tizimi, pedagogik nazorat va korreksiya texnologiyalari, inson jismoniy holatini boshqarish, ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlari, sport musobaqalari, jismoniy tarbiya va sport sohasidagi davlat va jaoat boshqaruv organlari, havfsizlik texnikasi, innovatsion g'oyalar, sportchi, jamoa, sport klubi yoki tashkilotiga psixologik yordam, yosh toifasi, rivojlanish bosqichlari, sport-sog'lomlashtirish tizimi.

**ISHLAB CHIQILGAN:**

**Buxoro davlat universiteti**



Rektor \_\_\_\_\_ **O.X.Xamidov**

2022 yil “ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_

**KELISHILGAN:**

**O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta  
maxsus ta‘lim vazirligi huzuridagi oliy  
ta‘limni rivojlantirish tadqiqotlari va  
ilg‘or texnologiyalarni tadbiq etish  
markazi**

Direktor \_\_\_\_\_ **Sh.Yakubov**

2022 yil “ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_

**M.O’.**

**Buxoro viloyati sportni  
rivojlantirish bosh  
boshqarmasi boshlig‘i**



\_\_\_\_\_ **O‘R.Najmidinov**

2022 yil “ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_

**M.O’.**

**Buxoro viloyati Xalq ta‘limi  
boshqarmasi boshlig‘i**



\_\_\_\_\_ **D.N.Mustavayeva**

2022 yil “ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_

**Buxoro davlat universitetida ishlab chiqilgan 61010300 - Sport faoliyati (faoliyat turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha oliy ma'lumotli bakalavrlar tayyorlashning tayyorgarlik darajasi va zaruriy bilimlar mazmuniga qo'yiladigan talablar yangilangan malaka talablari o'quv rejalariga**

**TAQRIZ**

“Ta'lim to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini ijro etish, Kadrlar tayyorlash milliy dasturiga muvofiq ta'lim mazmunini tubdan isloh qilish, tayyorlanayotgan kadrlar sifatining respublikada amalga oshirilayotgan chuqur iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar talablariga, shuningdek ta'lim, fan, texnika va texnologiyalar rivojlanishining ilg'or jahon darajasiga muvofiqligini ta'minlash bevosita malaka talablarining mazmuniga bog'liq.

**61010300 - Sport faoliyati (faoliyat turlari bo'yicha)** ta'lim yo'nalishining malaka talablari va o'quv rejalarini O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida”gi, “Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida”gi Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-3775-sonli; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktyabrdagi “Sog'lom turmush tarzini keng tadbiq etish va ommaviy sportni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida” gi PF-6099-sonli Farmoni; O'zR OO'MTB ning 2018-yil 6-iyundagi “Oliy ta'lim yo'nalishlarining malaka talablari va o'quv rejalarini ishlab chiqish to'g'risida”gi № 87-02-1322-sonli buyrug'i, oliy ta'lim sohasini tartibga soluvchi boshqa normativ huquqiy hujjatlarga hamda xorij tajribalariga muvofiq ishlab chiqilgan.

**61010300 - Sport faoliyati (faoliyat turlari bo'yicha)** ta'lim yo'nalishi bo'yicha tuzilgan yangilangan malaka talablari va o'quv rejalarini xorij tajribasi asosida uyg'unlashtirilgan, ta'lim oluvchilarda chuqur bilim, mustaqil fikrlash, yuksak kasb-kor malakasi shakllantirishini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilgan, bakalavrlarning fanlarni o'zlashtirish jarayonida tajriba, ko'nikmalar hamda tasavvurga ega bo'lishi, qo'yilgan talablarni bilishi va ulardan samarali foydalana olish kabilar to'g'ri ko'rsatilgan. Malaka talablari va o'quv rejasida fan oldida turgan dolzarb muammolarni o'rganish va ularni ijobiy yechimini izlab topishda zamonaviy uslub va texnologiyalarga, amaliy, seminar mashg'ulotlariga, mustaqil bilim olish hamda olingan ma'lumotlarni tahlil qilishga keng o'rin berilgan.

Malaka talablaridagi bloklar bo'yicha fanlar tarkibi, ularning o'zaro nisbatlari bitiruvchilarning tanlagan mutaxassisligi bo'yicha olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay olish ko'nikmasini kuchaytirish nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqilgan. Fanlar uchun belgilangan vaqt byujetining nazariy, amaliy, tajriba, mustaqil ishlar uchun taqsimoti bitiruvchining nazariy bilimlarini mustahkamlash va ularni amaliyotda muvaffaqiyat bilan qo'llash ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan.

Malaka talablari va o'quv rejasini ishlab chiqishda turdosh oliy ta'lim muassasalarining talab va takliflari inobatga olingan.

Xulosa qilib aytganda, **61010300 - Sport faoliyati (faoliyat turlari bo'yicha)** ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash uchun tuzilgan yangilangan malaka talablari va o'quv rejalarini oliy ta'lim o'quv jarayonini jahon andozalari darajasiga yetkazishga yo'naltirilgan bo'lib, har tomonlama yetuk mutaxassislar tayyorlashga oid masalalarni o'z ichiga olgan va safatli tuzilgan bo'lib, o'quv jarayonining me'yoriy hujjatlarini tayyorlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi hamda uni tasdiqlashni taklif qilaman.

Ajiniyoz nomidagi Nukus DPI  
Jismoniy madaniyat fakul'teti  
dekani, b.f.n.dotsent



A.Q.Utepbergenov

qol ta'basin tasvuyiqiyman

K.B. inspektor

**61010300 -Sport faoliyati (faoliyat turlari bo'yicha) bakalavriat ta'lim yo'nalishining malaka talablarini ishlab chiqilishiga**

**TUSHUNTIRISH XATI**

*61010300 -Sport faoliyati (faoliyat turlari bo'yicha)* bakalavriat ta'lim yo'nalishining malaka talablarini ishlab chiqishda quyidagi me'yoriy-huquqiy hujjatlarga asoslanildi:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2019 yil 8 oktabrdagi PF-5847-sonli Farmoni;

"2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida" 2020 yil 2 martdagi PF-5953-sonli Farmoni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 iyundagi "2020/2021 o'quv yilida O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to'g'risida" gi PQ-4749-sonli Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 22 iyuldagi "2021/2022 o'quv yilida O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to'g'risida" gi PQ-5157-sonli Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 11 iyuldagi "Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4358-sonli Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 7 iyundagi "Davlat ta'lim muassasalari hamda nodavlat ta'lim tashkilotlarini attestatsiyadan va davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi 470-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining 2020 yil 9 yanvardagi RA1/1-20-sonli topshirig'i;

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2020 yil 30 iyundagi "2020/2021 o'quv yilidan kredit-modul tizimiga o'tish to'g'risida"gi 357-sonli buyrugi.

Malaka talabini ishlab chiqishda bakalavriat ta'lim yo'nalishi bitiruvchilariga qadrlar iste'molchilar tomonidan ko'rsatilgan malaka talablari hisobga olingan.

Ushbu malaka talab "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" ning maqsadi va vazifalarining, shuningdek ta'lim-tarbiyaga yo'naltirilgan xamda Prezident, Vazirlar Maxkamasining qaror-farmonlarini mukammal amalga oshirilishiga qaratilgan.

Malaka talabi dasturda milliy mustaqillik, demokratiya, boy milliy va ma'naviy an'analar, xalqning teran intellektual imkoniyatlari va umuminsoniy qadriyatlar tamoyillari hisobga olindi.

Malaka talabi asosida ta'lim oluvchilarda chuqur bilim, mustaqil fikrlash, yuksak kasbiy malakaviy ko'nikma shakllanishi ta'minlanadi.

Ushbu malaka talabi xalqaro tajriba, texnika, texnologiyalar, fanning rivojlanish darajasi va yutuqlari iqqisodiy ustuvorlik sharoitida kadrlarga nisbatan ishlab chiqarish va amaliyotda qo‘yiladigan talablarni hisobga olgan holda ilmiy asoslanadi.

O‘quv yuklamasining oddiydan murakkabga qarab tuzilishiga erishilganligi natijasida ta’lim oluvchilarning qobiliyatlari va ehtiyojlariga ko‘ra ta’limni tabaqalashtirish imkoniyatlari hisobga olindi.

Ta’lim oluvchilar va bitiruvchilarni tayyorlash, ta’lim faoliyati sifatini baholash mezonlari va tartiblarining belgilangan me’yoriy- qoidalarga mosligiga erishildi.

Malaka talabning qulayligi - uning bajarilishini nazorat qilish, me’yor va talablari buzilishining oldini olish imkoniyatlari inobatga olingan bo‘lib, ta’lim yo‘nalishining malaka talabini ishlab chiqishda muhim axamiyat kasb etdi.

**61010300 -Sport faoliyati (faoliyat turlari bo‘yicha)** bakalavriat ta’lim yo‘nalishiga tajribada tekshiruvdan o‘tgan ta’lim hamda ishlab chiqarish amaliy faoliyatlarining ilg‘or me’yorlari kiritildi;

Malaka talabini ishlab chiqishda mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining istiqbollari, jamiyat ehtiyoji, fan, texnika, texnologiya va madaniyat yutiqlari, kadrlar tayyorlash borasida jahon tendensiyalaridan kelib chiqib, iqtisodiyot sohalarining modernizatsiyalashuv sharoitida kadrlar iste’molchilarining talablarini oliy ta’lim mazmuniga tezkor joriy etishiga tegishli sharoitlar yaratish, oliy ta’lim davlat talim standartlarini xalqaro amaliyotdagi akademik standartlar bilan uyg‘unlashtirildi hamda ularni uzviyligi ta’minlandi.

**O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor**

**R.G`Jumayev**